

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA' LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Li San modernizmining estetikasi

Bajardi: “Koreys filologiyasi” ta’ lim yo
‘ nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Abdugafurova Zilola Abdullaevna

(imzo)

Ilmiy rahbar: “ Koreys filologiyasi ”
kafedrasi dosenti, f.f.n. Kim V. N.

(imzo)

ANNOTASIYA: Koreys modern adabiyoti va Li San ijodiyoti o'zbek adabiy jamoatchiligi va sharqshunoslari tomonidan monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, koreys olimlari tomonidan jiddiy o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi Li San ijodiyotining badiiy-g'oyaviy estetikasini uning she'riy ijod na'munalarini tadqiq va tahlil qilish orqali yoritib berishdir.

TOSHKENT-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi:

Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo
tillari fakulteti dekani
f.f.n. Nosirova S.

«_____»_____2012 y.

Xorijiy sharq mammlakatlari
adabiyoti kafedrası mudiri
f.f.n., dosent Muhibova U.U.

«_____»_____2012 y.

R E J A :

Kirish	3
---------------------	----------

I bob. Li San yashab o'tgan davrdagi ijtimoiy va adabiy jarayon

1.1 XX asr koreys adabiyotida modernizm	7
--	----------

1.2 Koreys modern adabiyotida Li San ijodining tutgan o'rni.....	14
---	-----------

II bob. Li San she'riyatining badiiyati

2.1 Ko'zgu she'rining badiiy tahlili	22
---	-----------

2.2 “Qush parvozi balandligida” she'riy to'plamining g'oyaviy- badiiy xususiyati	27
---	-----------

2.3 Li San she'riyatining uslubiy xususiyatlari	35
--	-----------

Xulosa	40
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....	42
--	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi munosabatlar sathi tobora kengaymoqda. Bugungi kunda davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning dunyoqarashida ham shunga monand islohotlar olib borish zarurligi ustuvor masalaga aylandi. Shu o'rinda Prezident I.Karimovning quyidagi so'zlari o'rinlidir: "... biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o'z qobig'imizga o'ralashib qolmasligimiz kerak. ... boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham aloqalarni kuchaytirishimiz zarur. Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, horijdan biz nimalarni o'rganishimiz mumkin va nimalarni taqdim etishimiz mumkin – bu masalalar xalqaro maydonda o'zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanligini doimo yodda tutishimiz lozim. Men bu borada G'arb bilan Sharq mamlakatlari, jumladan Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni tavsiya etgan bo'lardim"¹.

Yurtboshimizning xorijiy davlatlar, xususan Janubiy Koreya bilan adabiy aloqalarni mustahkamlash haqidagi o'rinli fikr-mulohazalari butun adabiy jamoatchilik, jumladan biz sharqshunoslarning ham zimmasiga ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Zeroki, badiiy adabiyot borliqni badiiy bilish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi. Badiiy adabiyot, ayni paytda, dunyoni o'zgartirish quroli hamdir. U o'quvchining hissiyoti, ongi-shuuriga kuchli ta'sir etib, kitobxonni o'sha asar bilan hamnafas qiladi, asardagi ijobiy qahramonlardan o'rnak olishga o'rgatsa, salbiy qahramonlari orqali ogohlikka chaqiradi. Shu sabab ham «Adabiyot — hayot darsligi», degan gap faqat chiroyli ta'rifgina

¹ Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga e'tibor. -T., O'zbekiston, 2009. –33 b.

emas, uning zahirida katta haqiqat yotadi. Zero, badiiy adabiyot, badiiy asarlar mutolaasi davomida o'quvchi inson qalbining tub-tublariga kirib boradi, uning turfa fe'l-atvori bilan tanishadi, insonlar orasidagi murakkab munosabatlarni kuzatib, ularning ruhiyat olamidagi o'zgarishlarni birdek his qiladi, o'zga insonlar tajribasi bilan o'rtoqlashadi, buning natijasi o'laroq u hayotga, insonlarga o'zgacharoq yondasha boshlaydi, chuqurroq tafakkur qiladi, fikrlash doirasi kengayadi. Shu ma'noda ushbu bitiruv malakaviy ishi ham Koreya modern adabiyotining yirik vakillaridan biri, serqirra ijodkor, mashhur shoir va yozuvchi Li San va uning ijodining badiiy-estetik xususiyatlariga bag'ishlanganligi - Koreya modern adabiyoti orqali insonlar orasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatib berishda, ularning ruhiyat olamiga kirib borish, o'zga xalq adabiy tajribasi bilan o'rtoqlashish kabi xususiyatlari bilan xarakterlidir.

Li San nazmiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari, poetik tafakkurining va badiiy mahoratining betakror va murakkabligi bilan nafaqat o'z davrining ijodkori, balki Koreya adabiyotining o'tmish va bugunida ham muhim o'rin egallovchi ma'lum va mashhur shoirdir. Shu sababli biz uning ijodini tadqiq etmay turib, koreys modern adabiyoti haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaymiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi mana shu masalada ko'rinadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Koreys modern adabiyoti va Li San ijodiyoti o'zbek adabiy jamoatchiligi va sharqshunoslari tomonidan monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, koreys olimlari tomonidan jiddiy o'rganilgan. Shoir ijodiyoti ilk bora 1950-yillarda mashhur adabiy tanqidchi Kim Yun Shik tomonidan monografik tarzda tadqiq qilinib, bu tadqiqot "Li San tadqiqoti" deya nomlangan. Hozirgi kunda Koreyada Li San va uning ijodiyotini quyidagi usullarga bo'lib tadqiq etiladi: Formalistik tadqiq etish (I Sing Xun "Li San she'rlarining uslubiy tahlili, Xanyang Universiteti, 1988-yil"- □□□ "□□ □□ □□ □□" □□□,1988); Psixologik tahlil orqali tadqiq etish; Falsafiy tadqiq etish; Yangi davrga xos tadqiq etish

va h.; Jumladan Li San ijodiyoti bilan bog'liq quyidagi olimlarning tadqiqotlarini misol o'rnida keltirib o'tsak bo'ladi: 김주현 , 이상 문학의 텍스트 확정에 나타난 문제점 고찰, 1999 (Kim Ju Hyon, Li San adabiyotining matn xulosasida uchraydigan masalalar, 1999 yil) 이정엽, 이상 소설 문체의 수사학 과 서사구조 연구, 2002 년 (Li Jong Yop, Li San roman uslubidagi ritorika va tavsiflash strukturasi tadqiqi, 2002 yil), 박건용, 이상 문학에서의 “이상”, “13” 및 “레몬”의 의미 , 2005 년 (Pak Kon Yong, Li San she'riyatidagi “G'ayrioddiylik”, “13” va “Limon”ning ma'nosi, 2005 yil), 송민호, 이상 문학에 나타난 “화폐”와 글쓰기 , 2002 (So'ng Min Xo, Li San adabiyotida “pul” va yozuv uslubi, 2002 yil) va boshqalar.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti sharqshunos olimlari tomonidan bakalavriyat yo'nalishidagi talabalar uchun 2011 yilda nashr ettirilgan “O'rganilayotgan til mamlakati adabiyoti (Koreya)” o'quv qo'llanmasida Li San hayoti va ijod namunalari to'g'risida qisman ma'lumot berilgan bo'lsa-da, uning ijodiyoti tadqiqqa muhtoj emas, deya olmaymiz. Qolaversa sharqshunosligimizda bu borada yaxlit bir tadqiqot yo'qligini hisobga olishimiz zarur.

Bitiruv malakaviy ishining manbaalari. Tadqiqotning asosiy manbalari Pak Jol Xi, Kim Shi Te va bir qator adabiyotshunoslar bilan hammualliflikda nashr ettirilgan “Zamonaviy she'riyatni anglash” (박철희, 김시태. 현대시의 이해. 서울. 1992 년. 문학과비평사) va Kvon Yong Minning “Zamonaviy adabiyoti ensiklopediyasi” (권영민 현대 문학사) hisoblanadi.

Shuningdek, yangi davr Koreya adabiyotiga oid materiallardan, “Qush parvozi balandligidan” she'riy to'plamini tahlil qilishda esa koreya zamonaviy sh'eriya to'liqroq berilgan internet saytlaridan, koreys olimlarining yirik ilmiy maqolalaridan ham nazariy manbalar sifatida foydalanildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi Li San ijodiyotining badiiy-g'oyaviy estetikasini uning she'riy ijod na'munalarini

tadqiq va tahlil qilish orqali yoritib berishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- XX asr ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayonlarning adabiyotga ta'sirini o'zaro bog'liq holda talqin etish;
- Koreya modern adabiyoti hamda Li San she'riyatining mohiyatini yoritish;
- Li San she'riyatining Koreya zamonaviy adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash;
- Shoir ijodiyotining yetakchi mavzu va g'oyalarini o'rganish;
- Li San she'riyatining uslubiy xususiyatlarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining e'lon qilinganligi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy mazmuni tadqiqotchi talaba tomonidan ilmiy to'plamlarda chop etilgan 2 ta maqolada o'z aksini topgan.

Tadqiqotning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, II ta bobni o'z ichiga oluvchi asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat.

I bob. Li San yashab o'tgan davrdagi ijtimoiy va adabiy jarayon

1.1. XX asr koreys adabiyotida modernizm

Adabiyot - xalqning o'zligini namoyon etuvchi, o'zida dolzarb masalalarni qamrab olib ko'zgudek ko'rsatuvchi mohir san'atdir. Koreya adabiyotining zamonaviy davri 1910 yildan boshlangan bo'lib, bu davrda Koreya Yaponiyaning mustamlakasi ostidagi davlat hisoblangan. 1910 yildan to 1945 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan Yaponiya mustamlakasi Koreya tarixida "amxikki"² (zulmat davri) nomi bilan ham nomlanadi. Jahon adabiyoti tajribasidan ma'lumki, adabiyot jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sabab har bir davr adabiyoti o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotini ochib beradi. 1910 yildan 1945 yilgacha bo'lgan davrning ijtimoiy siyosiy holatiga nazar tashlasak, jamiyatning har bir jabhasida milliy ruhni so'ndirish va yaponiya kolonizatsiyasi siyosiy rejimi olib borilganini ko'rishimiz mumkin. Shubhasiz, yangi siyosat, yangicha qarashlar, mamlakatning iqtisodiy siyosiy hayotidagi moderinizatsiya adabiyotni ham cheklab o'tmagan.

1910 yildan boshlab Koreya adabiyotining zamonaviy davri boshlangan bo'lsa-da, ammo adabiyotdagi rivojlanish bosqichi 1920 yildan 1935 yilgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. O'sha davr adabiyotida mavjud bo'lgan turli oqim vakillarining fikr va g'oyalari bir-biriga zid bo'la boshlagani sabab, koreya zamonaviy adabiyotini ikki guruhga – burjuaviy hamda proletar adabiyotga ajratib yubordi³. Biroq shuni ta'kidlash joizki, bular ichida ikki guruhga mansub bo'lmagan vaziyatni obe'ktiv (neytral) baholaydigan yozuvchilar ham bo'lgan.

Koreya modern adabiyotini anglash uchun so'zsiz jahon miqyosidagi modern adabiyot tarixi, tushunchasi va mohiyatini anglab olish birlamchidir. Zero, ushbu oqim dunyoning qay bir chekkasida va qay bir millat adabiyotida

² □□□

³ Oh See Young , Cho Nam Hyun, Understanding Modern Korean Literature, –S., 1991. –18 b.

o'zini namoyon qilishidan qat'iy nazar yagona g'oya, ko'rinish, xususiyat, uslubiyat ostida birlashadi.

Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin bo'lib, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Aslida, adabiy jarayonda hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari (realistik va norealistik), adabiyotning mohiyati, bilish imkonlari, vazifasi va shu kabi masalalarda ziddiyatli qarashlar azaldan mavjud bo'lgani e'tiborga olinsa, modernizm kurtaklarini juda qadim zamonlardan ham topish mumkin bo'ladi⁴. Ya'ni modernizmga realistik va norealistik yo'nalishlar orasidagi ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda quyuqlashib, keskin namoyon bo'lishi, yangilangan nazariy asoslarga ega bo'lishi va ommalashishi sifatida qarash mumkin. Modernizm o'tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlarni (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim bo'lib, ijodiy metod sifatida tushuniladi⁵. Modernizm doirasidagi maktab va oqimlar nechog'li turfa bo'lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki modernizm xarakterini tavsiflovchi har qanday adabiyotda yozilganidek asrlar davomida shakllangan an'anaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F.Nisshe, Z.Freyd, A.Bergson, U.Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi⁶. Shunga mos tarzda modernizm yo'nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an'analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da'vosini olg'a suradi. Yangi adabiyot voqelikni realistik tasvirlashdan voz kechib, uni idrok qilish mumkin emas deb biladi, shu sabab modern adabiyot atalmish ummonda ijodkor:

⁴ www.quronov.narod.ru/modernizm

⁵ O'sha manba

⁶ O'sha manba

- simbolizm orqali insonning hissiy bilish imkonidan tashqaridagi mohiyatga intuitiv tarzda yaqinlashishni ko'zlaydi;
- absurd orqali voqelikda sabab-natija asosidagi tartibotning mavjudligini qabul qilmaydi;
- impressionizmni qo'llab asardagi voqelikni goh birdan paydo bo'lgan oniy taassurotlar yig'indisiga aylantiradi;
- surrealizm sabab asardagi makon tanib bo'lmas darajada o'zgargan, tasodif va g'aroyibotga to'la maydonga aylanadi.

Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u ob'ektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ekspressionizmni qo'llash orqali ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda sub'ektivlikning oldingi o'ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intuitiv bilishning yuqori qo'yilishi, ong oqimi orqali inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayricha e'tibor berilishi, ijodkor shaxs va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o'z o'y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarisiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g'oyaviy-mazmuniiy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsizdir. Modernizm ong oqimi orqali asrlar davomida shakllangan adabiy qonuniyatlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi turadi. Bu norealistik yo'nalish esa futurizm deb ataladi. Bu hol modernizmdagi badiiy obraz strukturasi, asarning sub'ektiv va ob'ektiv tashkillanishi, bayon tarzi, syujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi.

Modernizm o'z ichiga san'atning mohiyati va mavjudligi haqida bir-biridan jiddiy farqlanuvchi qarashlarga asoslangan va ayni chog'da, qator mushtarak jihatlariga ega turfa oqim va maktablarni birlashtirgan falsafiy-estetik hodisa bo'lib, u XX asr adabiyoti va san'atida chuqur iz qoldirdi. U

ko'plab ulug' adiblar (masalan F.Kafka, J.Joys va b.) tayangan ijodiy tamoyillarni belgiladigina emas, yaxlit olganda realizm mavqeida turgan qator adiblar (M.Prust, V.Vulf) ijod tarziga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi⁷. Shu o'rinda modernizmga berilgan ta'riflarning farqli ekani, uning yuzaga kelish vaqti, davrlashtirilishi kabi masalalarda bildirilgan fikrlarda jiddiy tafovutlar borligi, nihoyat, unga munosabatning turlicha ekanligini ham ta'kidlab o'tmoq joiz. Adabiyot tarixi realistik va norealistik ijodiy tamoyillar orasidagi kurash jarayoni, ayni chog'da, ularning bir-birini to'ldirish, boyitish jarayoni ham bo'lganini ko'rsatadi⁸.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek XIX-XX asr jahon adabiyotida vujudga kelgan turli adabiy yo'nalish hamda metodlar ta'siri ostida zamonaviy Koreya adabiyoti ham tez rivojlandi. 1920 yillarga kelib Koreya adabiyotida estetizm, romantizm, naturalizm, tanqidiy realizm, ijtimoiy realizm, 30 yillarning o'rtalariga borib esa konkret belgilarga ega modernistik ijod namunalarini ham ko'rishimiz mumkin.

XX asrdan buyon jahon san'ati va adabiyotida qo'llanib kelinayotgan modernizm janri Koreya adabiyotining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Zeroki, modern she'riyat yangi mazmun mohiyat orqali "ko'zimizni ochadigan" kutilmagan jozibadorlik, so'zlardagi obrazlilik, oldin biz hech qachon eshitmagan ritmik shakllar kabi xususiyatlarni o'zida aks ettira olish imkoniga ega. Modernizm insonlarga tanish so'zlar, barchaga ma'lum bo'lgan til qoliplaridan otilib chiqqan mavhumlik va sirlilikka boy janrdir. To'g'ri, ba'zan u yoqimsiz, ba'zan qo'pol va hatto inson tasavvurlarini ostin-ustin qiluvchi bo'lishi ham mumkin, ammo ko'pchilik hech qachon e'tibor qilmagan, xayoliga kelmagan o'rinlardagi go'zallikni oshkor qiladi.

Bu vaqtga kelib jahon adabiyoti bilan o'zaro tor aloqada bo'lgan Koreya zamonaviy adabiyotida ham modernizmning ta'siri va o'ziga xos namunalari

⁷ www.quronov.uz/modernizm

⁸ O'sha joyda.

paydo bo'la boshladi. Shuni ta'kidlash joizki, koreya adabiyotida modernizm koreys tadqiqotchisi bo'lmish Kim Yunsik nuqtai nazariga asoslangan holda, tor va keng ma'noda tushuniladi. Tor ma'noda tushunilishi 1930- yillargacha modernizm imajinizm shaklida namoyon bo'lganidadir. Keng ma'noda tushunilishi esa, XX asrdagi kapitalistik rivojlanish oqibati o'laroq, moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi san'at oqimi bo'lganidadir. Shuningdek Kim Yunsik “modernizm nima?” degan savolga quyidagicha javob beradi: “zamonaviy hayot asosida shakllangan g'oyalar, olingan taassurotlarning bari modernizmdir”⁹.

Koreya adabiyotida modernizmning paydo bo'lishi va rivojlanishini she'riyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, XX asr koreya adabiyotida modernizm belgilari namoyon bo'la boshlagan vaqt 1920 yillarga to'g'ri keladi. G'arb adabiyotining modernizm shamoli Koreyaning barcha jabhalariga Yaponiya orqali kirib kelgan bo'lib, Yaponiyaning “Yangi hissiyotlar to'lqini” deya atalgan maktab Koreya adabiyotida modernizmning shakllanishi va rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. 20-yillarning birinchi yarmida Kim U Jin komediyalarida ekspressionalizmga xos chizgilar qisman namoyon bo'la boshladi. Koreya adabiyotida modernizm endi kurtak yoza boshlagan bir vaqtda ekspressionalizmni namoyon bo'lishi o'z zamonasi uchun kamyob hodisa bo'ldi. 20-yillarning ikkinchi yarmida esa Chok Dji Yong o'z asarlari orasida modernizmga xos xarakterni o'zida mujassam etgan asarlarni ijod qila boshladi. Koreya adabiyotida modernizmning belgilari to'liq shakllangan davr 30-yillar hisoblanadi. Kim Girim ijodida imajinizm, Chve Je So'ning ijodida intellektualizm nazariyalar bilan tanishtirish mavjud bo'lib, ular avangard uslubiga xosdir. Aynan shu vaqtlarga kelib turli adabiy oqimlar va adabiy motivlar keng miqyosda qo'llanila boshlandi. Jumladan Yaponiya va Choson Yevropa va Amerikaning diqqat markaziga aylanishi ham Koreya adabiyotining G'arb adabiyoti bilan tanishib modern adabiyot sari olg'a qadamlar surishiga sabab bo'ldi. Uzoq o'tmishga ega an'anaviy san'at bilan

⁹ Тэн А.Н. Очерки корейской литературы XX век (до 1945 г). Сеул, 2003. –102 с.

ixtiyoriy shug'ullanish ham chegaralangan mustamlaka Koreyada avangard tizimidagi adabiy oqimlar bilan ijod qilish ham chegaralanmasdan boshqa iloj yo'q edi.

Li Sanning “Qanotlar” romanida syurrealizm, jumladan 1920-yillarda Kim U Jin asarlaridagi ekspressionizm adabiyot tarixida yangi zarvaraqlar ochilishiga olib keldi. Alaloqibat imajinizm va intellektualizmga asoslangan modern adabiyot 1930 yillarda yuksak cho'qqiga yetdi. Shoir Chong Ji Yongni adabiyot sahnasiga otilib chiqishi uning shaxsiy yutuqlari, ta'qiqlarga qaramay olib brogan ijodi zamonaviy she'riyatda katta iz qoldirdi. Shuningdek Kim Girimning faol ijodi, Chve Je Soning intellektualizmga bergan urg'usi, Kim Gvang Juning imajinizmga boy she'rlari, Li Sanning dadaizm va syurrealizm uslubida yozilgan ijod namunalari Koreya adabiyotida modernizm aniq rivoj topganidan darak beradi. Chong Ji Yongning “Vatan sog'inchi” (“향수”) va “Bengno'ktam ko'li” (“백록담”), Kim Gvan Gyungning “Kuz lirikasi” (“추일서정”), Kim Girimning “Ob-havo xaritasi” (“기상도”) kabilar bunga misoldir. Yapon imperializmining zulmat davri, mustamlakaning so'nggi davrlari, Koreya urushining daxshatli manzarasi madaniyat va adabiyotda modernizmning rivojlanishiga to'siq bo'la olmadi.

50-yillar adabiyotida modernizmning yangi qirralari namoyon bo'la boshladi. 1950-yillar modernizmi 30-yillardagi holatdan butunlay farq qiladi. Bu g'oyalar to'qnashuvining ta'siri ostida realizm aniq shakllanib bo'lib, modernizm yagona adabiy oqimga aylandi. Shuningdek 30-yillar modernizmi zaif holda syurrealizm, ekspressionizm, dadaizm va boshqalar qo'llanilgan bo'lsa, 50-yillar boshida modernizm Yevropa va Amerika modrnizmi Ezra Paund va Eliot imajinizmi darajasiga yaqinlashdi¹⁰. Bu esa mustamlaka davridan keyingi adabiyot qay darajada tezlik bilan rivojlanganidan dalolat beradi. Eliotning an'anaviyligi va Paundning simvolizmi, she'r yaratish uslubiyati orqali obyektiv va o'zaro aloqadorligi nazariyasi kabilar

¹⁰ www.naver.com/모더니즘/시의 경우

adabiyotshunoslikning markaziy mavzusiga aylandi¹¹. Ijod davom etayotgan bo'lsada she'riy tajriba va shakllarga diqqat qaratish usuli yuzaga keldi Bunga misol qilib Kim Chun Suning so'z o'yiniga boy bo'lgan "Gul" ("꽃") she'rini aytib o'tishimiz mumkin. Yana bir tarafdin 50-yillar modernizmida avangard metodi kam qo'llanilib, Kim Su Yongning qoralamasi bo'lgan "Konfutsiyning hayot qiyinchiliklari" ("공자의 생활난") kabi asarda syurrealistik obrazlar ko'rindi shuningdek Cho' Xyangning dadaizmi va bu davrdagi modernizm ishlatilish tendensiyalarini aniqlashishi katta hodisaga aylandi. Bu holat va ko'rinish o'zgarishlarining boshlanishi ekzistensializmni adabiyot sarhadlariga katta o'zgarishlarni olib kelganidan darak edi. 40-yillarda ko'pchilik adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga tortgan modernism Kamyu va Sarterning ekzistensializm adabiyotshunosligi bilan tanishgandan so'ng koreya modernizmi yangi impuls oldi. Oddiy obrazlarning yaratilishi to'xtalishi emas asarlarning yaratilishiga o'zga bir yondoshuvlar sabab ya'ni fa'safiy metafizik asarlarga e'tibor orta boshladi. Bunga sabab adabiyot va voqe'lik o'rtasidagi bog'liqlik haqida yangi tushunchalar paydo bo'lganligidadir. 50-yillarda adabiyotshunoslarning ko'pchiligi modernism janrida ijod qilgan bo'lsa-da, ko'zga ko'ringan va shu oqimga xos va mos ijodkorlar qo'l bilan sanoqlidir. Bular Kim Gyu Dong, I Bo'ng Ne, Kim Su Yong, So'ng Uk, Kim Chun Su kabilardir.

¹¹ O'sha manba.

1.2 Koreys modern adabiyotida Li San ijodining tutgan o'рни

Koreya modernizmi haqida fikr yuritar ekanmiz, koreys modern adabiyotining buyuk darg'alari bo'lmish Li San, Pak Txevon, Kim Girim, Chon Chjiyon kabilarni tilga olish o'rinlidir. Bularning ichida Li San kam umr ko'rganligiga qaramay koreya adabiyotida o'ziga xos o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan. U o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkorlardan biridir.

Asl ismi Kim Xe Gyon bo'lgan Li San 1910 yil 14 sentyabrda Seulda dunyogan kelgan, bu davrda Koreya o'z mustaqilligini yo'qotib, butunlay Yaponiya mustamlakasi ostida bo'lgan. Shuningdek Li San "Pigu" taxallusi ostida ham ijod etgan. Bo'lg'usi shoir Boson akademik litseyida shuningdek Keson oliy o'quv yurtida arxitektura va texnik bilimlarni o'zlashtirgan. 1929 yilda "Koreya va Arxitektura" jurnalining muqova dizayni uchun uyushtirilgan konkursda ishtirok etadi va aynan shu jurnalda uning "12-dekabr" nomli ilk romani nashr etiladi. 1933 yilga kelib shoir o'zining asl sohasi hisoblanmish arxitekturani tashlab, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga kirishadi. Qahvahona, fotostudialar ochadi, biroq bu sohada ko'p bora omadsizlikka uchrab tushkunlikka tushib qoladi. To'xtovsiz ichish va nosog'lom turmush tarzi oqibatida sil kasalligiga chalinadi¹². O'zining bedavo dardga chalinganini bilganidan so'ng ijodga kuch beradi. Koreys modernizmi yo'nalishining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Li San nazm va nasrda birdek ijod qilgan. Uning ilk she'ri 1931-yilda yozilib "Choson va arxitektura" jurnalida nashr ettirilgan "Qarshi reaksiya" ("이상한 가역바능") she'ridir. Shuningdek u "GB" (지비), "Ortiqcha me'ros" ("가외가전") kabi bir necha she'rlar muallifidir. "Ko'zgu" ("□□") va "Qush parvozi balandligida" ("□□□") Li San she'riyatining ma'lum va mashhur ijod namunasi bo'lsa, "Qanotlar" ("□□"), "Uchrashuv va ayriliq" ("봉별기"), "To'qqizlik jamiyati" ("□□□"), "12-dekabr" ("12 □ 12 □") va vafotidan oldin

¹² 김만수, 서경석, 정호웅, 한형구. 고교 생을 위한 문학사. 도서출판 강, 1998. -104 쪽.

yozib qoldirgan “Zerikish” asarlari nasriy yo’nalishda unga cheksiz shuxrat olib kelgan asarlar ekanligini keltirib o’tishimiz mumkin. Uning ijodiga baho berishda Kim Yunsikning quyidagi jummalarni keltirib o’tish o’rinlidir: “Li San Koreya va Yaponiyani birlashtirib turuvchi bo’g’ozdir”¹³. Zamonaviy adabiyot haqida tushuncha beruvchi kitoblarda bayon etilgan Li Sanning hayot yo’liga nazar solar ekanmiz, uning Yaponiyani haqiqiy modernizm markazi sifatida ko’rgani va Tokioga intilib, 1937-yili o’sha yerda sildan vafot etgani haqidagi ma’lumotlarga duch kelamiz.

Li San she’rlarining nomlanishi bir vaqtning o’zida ham jarangdor, ham insonni o’ziga jalb qiladi, shu bilan birga chuqur falsafiy ma’noga ham egadir. Biroq she’rlarni shoir ruhiyatini anglamay turib bir o’qishda tushunish o’ta mushkul. 1931 yildan boshlab Li San “Oila”, “ Ko’zgu”, “Gullayotgan daraxt”, “Qarshi reaksiya” “Qush parvozi balandligida” nomli she’rlarini omma havolasiga taqdim etadi. 1934 yildan boshlab “Qush parvozi balandligida” nomli she’riy to’plam rukni asosida “Cho’son chunganilbo” gazetasida chop etib kelayotgan bir necha she’rlari adabiyot shinavandalari tomonidan tanqidga uchrab to’xtattiriladi. Kitobxonlar tomonidan tanqidga uchragan shoir tushkunlikka tushmay, “Qog’ozdan yasalgan qabr toshi”, “Ko’chaning tashqi tomoni, ko’cha hodisotlari”, “Jiddiy vaziyat” kabi she’rlarni ommaga taqdim etadi.

Uning nazmdagi ijodiga nazar soladigan bo’lsak, Li San she’rlarida boshqa koreys shoirlarnikiga o’xshamagan takrorlanmas uslub, raqamlar bilan ishlash, sirlilik, mavhumlik, ko’proq shaxsning ichki “men” masalasini mavzuga tortishini ko’rishimiz mumkin. Jumladan uning ijodida xayolot murakkabligi mavjud. Li San she’rlari o’zining noan’anaviyligi va murakkabligi bilan kitobxon e’tiborini tortib, voqelikka teranroq razm solishga, ramziy ma’no qatlamlarini yanayam chuqurroq anglashga chorlaydi.

¹³ Тэн А.Н. Очерки корейской литературы XX век (до 1945 г). Сеул, 2003. –100 с.

Bunga misol qilib “Qush parvozi balandligida” she’ridan bir necha satrni keltirishimiz mumkin:

13 인의아해가도로로질주하오.

(길은막달은골목이적당하오.)

제 1 의아해가무섭다고그리오.

제 2 의아해가무섭다고그리오.

제 3 의아해가무섭다고그리오.

제 4 의아해가무섭다고그리오.

13 bola yo'lda jon-jahdi bilan yugurib ketmoqda

(Yo'l esa boshi berk ko'cha)

1-bola qo'rqinchli deb aytdi

2-bola qo'rqinchli deb aytdi

3-bola qo'rqinchli deb aytdi

4-bola qo'rqinchli deb aytdi

Yoki:

□ 1111111111

1 □ 222222222

22 □ 33333333

333 □ 44444444

4444 □ 555555

55555 □ 66666

666666 □ 7777

7777777 □ 888

88888888 □ 99

999999999 □ 0

0000000000 □ ¹⁴

Yuqorida keltirilgan she’r shoir ijodidagi g’oyaviy murakkablikni jumladan sonlar bilan ishlash esa dadaizm yo’nalishida ijod qilganini ko’rsatadi. Ushbu she’r esa Koreya modern adabiyotining betakror va sirli she’riy nazmiy ijod namunasidir.

Yuqorida misol tariqasida keltirganimiz va ta’kidlab o’tganimizdek, Li San she’rlarida bir vaqtning o’zida imajinizm, syurrealizm, simvolizm, dadaizm kabi norealistik oqim va guruhlar ishtirokining guvohi bo’lamiz.

¹⁴정상균 지음. 한국현대시문학사. -入., “아세아문화사”, 2003. -611 쪽.

Sanab o'tilgan bu va boshqa oqimlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega va ayni chog'da, ularning hammasini mushtarak bir belgi – hayotni tasvirlashda norealistik metodlarga amal qilishlilik birlashtirib turadi.

Li San va uning ijodini Koreya modern adabiyotida tutgan o'rni haqida fikr yuritar ekanmiz, shoir o'z ona tilisi emas aynan yapon tili ona tili sifatida o'rgatilgan til siyosati olib borilgan, hayotning har bir jabhasida milliy ruhni so'ndirishga, an'ana va qadriyatlarni yo'qqa chiqarishga, xalqni tarixiy xotiradan mahrum qilishga qaratilgan siyosat ostida dunyoga kelib ulg'aya boshlaganini aytib o'tish joiz. Shu sababli uning asarlari g'oyaviy zamirida o'zlikni anglashga hissiga kuchli e'tibor qaratilgan va bu mavzu sirli tarzda har bir ijod namunasining bosh g'oyasi hisoblanadi.

Shoir va yozuvchi bo'lmish Li San o'z asarlarida qahramonlarni og'ir vaziyatlarda ortga chekinmaslikka, taslim bo'lmaslikka, o'zligini saqlab qolishga undaydi. Shuningdek Li San ko'pgina she'rlarida hech bir qahramonining portretini yaratmay, ko'proq urg'uni inson qalbini, ichki dunyosini chizishga qaratishi bilan zamondosh shoir va yozuvchilari orasida xarakterlidir.

Ta'kidlab o'tganimizdek, Li Sanning "Qanotlar" romanidagi syurrealizm, jumladan 1920-yillarda Kim U Jin asarlaridagi ekspressionalizm adabiyot tarixida yangi zarvaraqlar ochilishiga olib keldi. Shuningdek Kim Girimning faol ijodi, Chve Je Soning intellektualizmga bergan urg'usi, Kim Gvang Juning imajinizmga boy she'rlari kabi Li Sanning dadaizm va syurrealizm uslubida yozilgan ijod namunalari ham Koreya adabiyotida modernizm aniq rivoj topganidan darak berib, uni modern adabiyotdagi markaziy muhim ijodkorlardan biriga aylantirdi.

Koreys modernizmining yorqin namoyondalaridan biri Li San hayoti va ijodining o'ziga xos xususiyatlari bizga koreys modernizmining ba'zi bir milliy chizgilarini bilib olishimiz uchun asos yaratadi. Ayniqsa o'zining modern turmush tarzi orqali Li San bu oqimni juda yaqqol namoyish etgan.

Li San modernizmining o'ziga xosligini Kim Yunsik «xendetxan»¹⁵ majmuasi atamasi bilan ifodalagan. Xendetxan – Koreya va Yaponiyani ajratib turuvchi bo'g'oz bo'lib, mazkur ramziy tushunchada Kim Yunsik modernizmning tub mohiyatini ko'radi: “Li San haqiqiy zamonaviylikni ko'rishni istadi. O'pka sili sababli hayotining qolgan sanoqli kunlaridan foydalangan holda u asl modernizmni ko'rish maqsadida o'zi zamonaviylikning markazi deb bilgan imperiyaning poytaxti Tokioga intildi. Metropoliya poytaxtining qoq markazida moderncha mazmun-mohiyat hukm surayotganligiga shaxsan o'zi ishonch hosil qilishi kerak edi. Bu kabi avantyura (qaltis harakat) bo'lmaganida modernizm “adabiyotga kiritilgan tarix” sifatida e'tiborga arziyas tashqi taqlidga aylanib qolar edi”¹⁶. Aynan shu hatti-harakatni Kim Yunsik «xendetxan» majmui deb nomladi. Bu avantyurani dadillik bilan amalga oshirgan va bu yo'lda jonini fido qilgan yagona odam Li San bo'lgan. Li Sanning o'limi koreys modernizmi mehrobiga keltirilgan gunohni yuvuvchi qurbonlikdir.

Li Sanni yozuvchi-modernist sifatida shaklantirgan moderncha hayoti nimalarda namoyon bo'ladi? Kim Yunsik o'zining Li San haqidagi tadqiqotlarida yozuvchining ona shahri Seulda kechirgan turmush tarziga oid aniq dalillar keltiradi. Zamondoshlarini Li San tashqi qiyofasining o'ziyoq hayron qoldirar edi. Do'sti bilan vaqtichoglik qilgani borgan bir shaharda bolalar uni Seuldan kelgan sirk truppassi fokuschisi deb o'ylab, uning ketidan ergashib yurganlar. Kamdan-kam yuvinar va soch tarar edi; hatto qishda ham tartibsiz bo'yinbog' va oq botinkalarda yurar edi; ko'pincha tushgacha uxlardi; qurilish texnikasi kasbini tashlab, choyxona ochdi; haqiqiy ismi Kim Xegyon o'rniga o'zini Li San deb nomladi. “Uning butun turmush tarzi shundan dalolat beradiki, axloqiy tushunchalar, sog'lom fikr, biror ishda g'ayrat qilish unga bema'ni va kulgili tuyulgan”¹⁷.

¹⁵ 현대탄

¹⁶ Kim Yoon-shik. Understanding Modern Korean Literature. -Seoul, Jimoondang, 1998. -45 p.

¹⁷ O'sha joyda.

Tashqaridan qaraganda Li San yengil-yelpi hayot kechirar, ko'p vaqtini o'yin-kulgu, ko'chada tentirab yurish bilan o'tkazar edi. Biroq Kim Yunsikning yozishicha: “Agar bu kabi patologik g'ayritabiiy moyillikni uning o'ziga xos xususiyati sifatida tushuntirilsa, adabiyot va madaniyat tarixida uning o'rnini belgilash qiyin bo'lib qoladi. Li Sanni ijod qilishiga sabab bo'lgan asos va uni o'rab turgan muhit tizim sifatida kapitalizmdan ajratib bo'lmaydigan “modernizm” umumiy tushunchasi ostida jamlanadi. Li San ijodini muhokama qilishda kapitalizm shahar manzarasiga kiritgan o'zgartirishlarga e'tiborni qaratish joiz”¹⁸.

Li Sanning tashqaridan yengil ko'ringan hayotining teskari tarafi aql-zakovatning qizg'in faoliyati bilan xarakterlanadi. Shaharning ko'cha hayoti ijodkorning ongidan o'tib, mazmun va uslub jihatdan yangi bo'lgan asarlar shaklida XX asr koreys adabiyoti tarixida o'z o'rnini egalladi. Janubiy koreyalik Li Sonenning yozishicha, Li San asarlarini tushunib yetish – oson ish emas, bunda xato tushunchalar va salbiy fikr hamroh bo'lishi mumkin.

Li Sanning nasr borasidagi ijodiyotiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, “12-dekabr” asari har tomonlama namunali hisoblanadi. Bu o'rtacha hajmli epik turdagi asar roman – shaxsiy hayot eposi deb atalish uchun barcha asoslarga ega. Roman janri haqida so'z borganda, eng avvalo, alohida olingan shaxsning badiiy zamon va makondagi shakllanish va rivojlanish taqdiri haqidagi hikoya to'liqligi hisobga olinadi. “12-dekabr” asari kichik hajmga ega bo'lsada o'zida roman xususiyatlarini mujassam etgani uchun ham roman deb atalishga haqlidir.

“12-dekabr” romani qahramonning jamiyat, ob'ektiv borliq bilan aloqadorlikdagi shaxsiy taqdiri haqida hikoya qiladi. Yozuvchi qahramonning taqdirini ko'plab yurtdoshlari uchun umumiy va xos bo'lgan jihat – Vatanni tark etish va dunyo bo'ylab sargardon kezishga majburlik holatida tasvirlaganda realistlar kabi yondoshadi.

¹⁸ Kim Yoon-shik. Understanding Modern Korean Literature. Seoul, 1998. -45 p.

Roman qahramoni X. – sodda, oddiy askar va bir vaqtning o'zida chuqur fikrlaydigan odam. Vatanida yashagan chog'ida u qashshoqlik yoqasida turgan ko'plab yurtdoshlari taqdiriga sherik bo'ladi. Ular oldida yashash va oziq-ovqat topish kabi eng muhim muammolar paydo bo'ldi. Rizq-ro'z talabida u vatanini tashlab ketib, pul topish uchun o'zga yurtlarga borishga qaror qildi. Shu jihatdan qahramonning hayotiy sinovlari ko'plab emigrantlar guruhi chekiga tushgan qismatdan deyarli farq qilmaydi. Shu bilan bir qatorda uning xarakteri va dunyoqarashiga oid xususiyatlar bilan to'yingan shaxsiy hayoti faqat yashash uchun pul topish bilan mashg'ul bo'lgan oddiy emigrantlar hayotidan sezilarli darajada farqlanadi. Tahliliy ong va sezuvchan yurak egasi bo'lgan Li San atrof olamdagi ko'plab voqea-hodisalarni o'zining modernistlarga xos o'lchovlari bilan fahmlaydi va qabul qiladi. Bu holat uning asarlarining qahramonlariga ham xosdir. Garchi qahramonda ma'lum bir xarakter chizgilari ko'zga chalinsa-da, har holda u ham asosan insoniyatning fojeaviy taqdirini ifodalovchi ramziy bo'rttirilgan obrazdir. Romanning qolgan personajlari - indamaslarlardir, deyarli hech narsa gapirmaydilar, asosan sukut saqlaydilar. Muallif o'ylab topgan barcha badiiy usullar asarning g'oyaviy mazmuni – begonalashish g'oyasini ochishga qaratilgan.

Li Sanning mashhur asarlari qatoriga “Qanotlar” hikoyasi (1936) ham mansub.

Asar qahramon nomidan hikoya qilinadi. Unda atigi ikkita shaxs mavjud bo'lib, ular xarakterni emas, balki ko'proq timsoliy obrazlarni ifoda etadi. Qahramon va uning xotini – ism berilmagan, maksimal umumlashtirilgan, o'zida muayyan hayotiy qarash va xulq-atvorni gavdalantirgan personajlardir. Hayot yo'lida ularning har qaysisi o'zicha qadam tashlaydilar. Bu ikkita yelkama-elka yashovchi odamlarning haddan tashqari bir-biridan begonaligi asarda hatto er-xotin o'rtasida o'zaro jonli suhbatning yo'qligi bilan ham o'z badiiy ifodasini topgan. “Qanotlar” hikoyasida masal yordamida nafaqat axloqiy muammo hal qilinadi, balki

keng umumiy xulosa beriladi va yozuvchining zamonaviy madaniyatli olamga bo'lgan tanqidiy munosabati namoyon bo'ladi.

Li Sanning “Qanotlar”, “Visol va ayriliq” (1933), “Hayot bilan vidolashuv haqida noma” (1937) va boshqa shu kabi avtobiografik mavzudagi hikoyalarida, odatdagidek, qahramon ixtiyoriy yoki beixtiyor aloqaga kirishadigan ikkinchi plan – ob’ektiv mavjud voqelik ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularda markaziy muammo: zamonaviy olamdagi inson taqdiridir¹⁹.

Li San romanlarida ifodalangan koreys emigratsiyasi, uysizlik, darbadarlik masalalari mustamlakachilik davridagi koreys adabiyotining bosh mavzularidan biri bo'lib, turli yo'nalish va uslubda ijod qiluvchi yozuvchilar tomonidan olib chiqilgan va bu ma'lum ma'noda Li Sanning romanini koreys adabiyotidagi boshqa asarlar bilan yaqinlashtiradi.

Modernist yozuvchilar insonning nafaqat ruhiy yolg'izligi va iztiroblari haqida, balki uning jismoniy zaifligi va kasalliklari haqida ham yozganlar. Sil kasaliga chalinib, tuzalishiga hech qanday umid bo'lmagan Li San esa, o'limiga sanoqli kunlar qolganini bilar va aytish mumkinki, butun olamga o'zining xastaligini ochiqdan-ochiq bildirar edi. Uning ruhiy va ong oqimi holati barcha asarlaridan ufurib turadi.

Koreys modern adabiyotida Li San ijodining o'rni shundaki, she'r va romanlarining g'oyaviy markazida shaxsning ichki kechinmalari, onglilik va ongsizlik holati, uning ichki dunyosi, o'zlikni anglash masalasi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga uning asarlarida bir vaqtning o'zida insonning hissiy bilish imkonidan tashqaridagi mohiyatga intuitiv tarzda yaqinlashish, voqelik va mantiqiylikni inkor etish, o'zgalarga tushunarsiz taassurotlar, raqam va shakl orqali jumboqni keltirish kabi xarakterlilikni shohidi bo'lishimiz mumkin.

¹⁹ 권영민 편. 한국현대문학대사전. 서울, 서울대학교출판부, 2004. -703 쪽.

II bob. Li San she'riyatining badiiyati

2.1 Ko'zgu she'rining badiiy tahlili

1933-yilda yozib nashr ettirilgan “Ko'zgu” she'ri Li San ijodida ilk mashhurlik keltirgan she'r hisoblanadi. Bundan oldin ham bir necha she'rlari cho'p etilgan bo'lsa-da, “Ko'zgu”chalik mashhurlik keltirmagan edi. Shuni ta'kidlash joizki, shoir ijod namunalarining g'oyaviy markazida shaxsning ichki kechinmalari, onglilik va ongsizlik holati, uning ichki dunyosi, o'zlikni anglash masalasi muhim o'rin tutadi. Li San borliqni mantiqqa zid holatlar orqali inkor qilishi oqibatida o'z ijod namunalarida modern adabiyoti chizgilarini namoyon qiladi. Quyida Li Sanning imajinizm, syurrealizm, simbolizm, dadaizm kabi norealistik oqim va guruhlarning ishtiroki mushtarak bo'lgan ijod namunalaridan biri bo'lmish “Ko'zgu” she'rini tahlil qilish orqali uning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

거울

거울속에는소리가없소

저렇게까지조용한세상은참없을것이오

거울속에도내게귀가있소

내말을못알아듣는딱한귀가두개나있소

거울속의나는왼손잡이오

내악수(握手)를받을줄모르는-악수를모르는왼손잡이오

거울때문에나는거울속의나를만져보지를못하는구료마는

거울이아니었던들내가어찌거울속의나를만나보기라도했겠소

나는지금(至今)거울을안가졌소마는거울속에는늘거울속의내가있소

잘은모르지만외로된사업(事業)에골몰할게요

거울속의나는참나와는반대(反對)요마는 또 꽤 답앓소

나는거울속의나를근심하고진찰(診察)할수없으니꼭섭섭하오 ²⁰.

Ko'zgu

Ko'zgu ortida biror bir sas yo'q,

²⁰ 권영민 현대 문학사 (1896-1945). 서울, -B.500-600, She'r tarjimasi BMI muallifi tomonidan qilingan.

Bundayin sokin olam haqiqatda yo'q.
 Ko'zgu ortidagi aksimda ham menda quloq bor,
 Mening so'zimni tushuna olmaydigan foydasiz ikki quloq bor.
 Ko'zgudagi aksimda men bir chapaqay,
 Qo'l berib ko'rishishni bilmaydigan chapaqay.
 Ko'zgu sabab men ko'zgu ortidagi "men"ni ushlab ko'ra olmayman,
 Lek, ko'zguda mavjud bo'lmaganlar
 qanday qilibbo'lsa ham ko'zgudagi "men"ni uchratsa bo'ldi.
 Menda hozir ko'zgu yo'q, lek ko'zguda men doim borman,
 Aniq bilmayman, lek xato ishim ustida jiddiy o'ylanyapman.
 Ko'zgu ortidagi "men" bilan
 qarama qarshi tomondagi "men" biroz o'xshash,
 Men ko'zgu ortidagi "men"ni aslini bila olmaganim uchun afsusdaman.

Tahlilga tortgan she'rimizda ko'zgu orqali avtoportret ya'ni shaxsning "Men"i yoritib berilgan. She'r esa monolog uslubida yozilgan. Hikoyada ichki monolog va nutqiy xarakteristika ajralmas birlik sifatida qo'llanilgan.

Umuman ko'zguga ta'rif berar ekanmiz, savol tug'iladi "Ko'zgu" nima? U koreys adabiyotida qanday ramziy ma'noga ega? "Ko'zgu" insonga haqiqatni yolg'onsiz ko'rsatib beruvchi narsadir, biz bilgan ko'zgu esa atrofdagi voqea-hodisani, narsalarni haqiqiy ko'rib turganimizdek aks etib turuvchi ashyo hisoblanadi.

Koreyaning uzoq o'tmishdan to shu kungacha bo'lgan ma'naviy va madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan buddizm ta'limotiga muvofiq ko'zgu - haqiqat ramzi hisoblanadi. Shuningdek, o'z asli kabi namoyon bo'lish dinning asosiy g'oyalaridan birini anglatgani uchun ham, ta'limot nuqtai nazaridan ramziy ma'noga egadir²¹.

Yuqoridagi she'rda biz shoir ko'zguni bir vaqtni o'zida ham to'g'ri ham ko'chma ma'noda ishlatganini ko'rishimiz mumkin. Biz she'rni tahlil

²¹ 김준현. 마음 떠난 자리에. 서울, 대흥기획, 1997. -113 b.

qilar ekanmiz, unda yozuvchi ko'zguni tashqi olamga qiyoslaganini ko'rishimiz mumkin.

Shoirning yuqoridagi satrlaridan “Meni tashqi olam ko'ra oladi, ammo ichki tuyg'ularimni tushunmaydi, ko'zguda men qanday bo'lsam shundayligimcha ko'rinaman-ku, aslida men meni ko'rib turgan tashqi olamdagidek emasman” degan g'oya kelib chiqadi.

Ko'zguda ko'rinib turgan “men” aslida menman, lekin o'zim ichimdagi “men”ni hech kim xatto o'zim ham hali bilmayman.

Yozuvchi mana shu ko'zgudagi asliy “men”ni emas, o'zidagi, ya'ni ichidagi, o'zi hohlagan “men”ni ham ko'zguda aks etishini xohlaganini ko'rishimiz mumkin.

She'ning harakateriga to'xtaladigan bo'lsak, psixologik, abstraktililik va syurrealistik oqimga oiddir. Chunki modern adabiyotida syurrealizmgga asoslangan holda “Ego” ya'ni “Men” masalasini ochib berish jahon adabiyoti tajribasida ko'p uchrab turadi. Umuman ijodkor o'z umrining tugab borayotganidan tushkunlikka tushgani sabab o'z asarlarida aql-idrok va tajriba rolini inkor qiladigan formalistik oqimda ijod qilganini ko'rishimiz mumkin.

She'ning mavzu ohangiga to'xtaladigan bo'lsak, she'ning boshlang'ich to'rt satridan pessimistik ruhda yozilganini anglab olish mumkin:

거울속에는소리가없소
저렇게까지조용한세상은참없을것이오
거울속에도내게귀가있소
내말을못알아듣는딱한귀가두개나있소

Ko'zgu ortida biror bir sas yo'q,
Bundayin sokin olam haqiqatda yo'q.
Ko'zgu ortidagi aksimda ham menda quloq bor,
Mening so'zimni tushuna olmaydigan foydasiz ikki quloq bor.

She'rdan psixologizm uslubi ham mavjud bo'lganini ichki dialog bilan ifodalay olamiz. Ruhiy holatini ham aynan ichki dialog bilan ochib berganini ko'rishimiz mumkin.

Li San she'rning g'oyasi sifatida inson ichki dunyosini, har bir inson bamisoli bir dunyo ekanligini, ko'zda tutilayotgan ushbu dunyo ikkiga: ichki va tashqiga bo'linishini, o'zlikni anglash masalasini ilgari surgan.

Yozuvchining bu falsafiy qarashida biz bir qarashda bu haqiqiy olamni tasvirlayotgandek, yana bir qarashda faylasafiy qarashini, o'zini tashqi olamdan qidirayotganini sezishimiz mumkin.

Inson dunyoga kelibdiki, hayotda o'z o'rnini ko'rishni xohlaydi, ammo doim ham biz o'ylagan yoki tasavvur qilgan "men"ni topa olish mushkul, yozuvchi mana shu qarashni she'rida tasvirlab bergan.

Aslida yozuvchi yosh bo'lishiga qaramay, tashqi dunyodan, ko'rib turgan haqiqiy olamimizda o'z o'rnini o'zi tasavvur qilgandek topmoqchi bo'ladi, ammo unga bu ko'rinib turgan olam ko'zgu ortidagi sassiz bir tinch olamga o'xshaydi. Yozuvchi unda o'zini topadi, ammo undagi "men"i aslidek, o'zi xohlagandek tuyulmaydi.

Li San she'riyatida yana alohida urg'u berish kerak bo'lgan jabha bu uning yozish uslubidir. Bu uning joy tashlamasdan so'zlarni bir-biriga jipslashtirib yozishidir:

내악수(握手)를받을줄모르는-악수를모르는왼손잡이요
 거울때문에나는거울속의나를만져보지를못하는구료마는
 거울이아니었던들내가어찌거울속의나를만나보기라도했겠소
 나는지금(至今)거울을안가졌소마는거울속에는늘거울속의내가있소

Uning bir necha she'rlarida ushbu uslub ko'zga tashlanadi. Vaholangki probel tashlamasdan yozish koreys tiliga xos emas. Bu nimani anglatadi? Koreya adabiyotida faqat Li San ijodiga kuzatishimiz mumkin bo'lgan bu uslub borasida bir necha bir birini oqlaydigan fikrlarni olg'a surishimiz mumkin:

1. Ma'lumki shoir modern adabiyoti vakili shuningdek, Yaponiya uning eng intilgan mamlakati bo'lgan, ma'lum bir jabhalarda yaponlarga taqlid qilishini yozuv uslubida ham aks ettirgan. Zeroki, probel tashlamasdan yozish yaponlarga xosdir.
2. Shoir ijodining sermahsul davri umrining poyoniga yetib borayotganini anglagan onidan boshlangan. Umrining qisqaligi va vaqtining juda ozligi uning fikrlar oqimiga ta'sir qilgan. Shu sabab bunday uslubni to'xtovsiz fikrlar oqimining belgisi deb ifoda etish ham xarakterlidir.
3. Jipslashtirilgan so'zlardan tashkil topgan jumlalarda so'z o'yini mavjud deb ham taxmin qilish mumkin. Biroq bu shunchaki taxmin bo'lib, ayni borada aniq bir tadqiqot hali olib borilmagan.

2.2 “Qush parvozi balandligidan” she’riy to’plamining

g’oyaviy-badiiy xususiyati

Li San ijodining eng muhim asarlaridan biri hisoblanmish “Qush parvozi balandligidan” asari 1934-yil 24 iyuldan boshlab “Cho’son chungangilbo”²² gazetasida qismli tarzda nashr etila boshlangan. Avval boshdan 30 qismli qilib nashr ettirilishi rejalashtirilgan “Qush parvozi balandligidan” asari 15-qism nashr ettirilgandan so’ng kitobxon tanqid va noroziligiga uchrab to’xtatildi. “Qush parvozi balandligida” asarining 1-qismini so’zma-so’z tarjima qilib tushunish, ketma-ket berilgan jummalarni bir-biri bilan bog’lab umumiy ma’no chiqarish juda mushkul. G’oyaviy ziddiyat va murakkabliklarga to’la ushbu asarga adabiyotshunos olimlar tomonidan yozilgan izohlar ham turlicha. Shu sabab bitta muqim g’oyani aytish qiyin. Modern adabiyot olamni ijodkor ko’zi bilan ko’rishga majbur qilgani sabab izohga tortayotgan shaxs tafakkuriga qarab turlicha yo’nalish olishi ham xarakterlidir. Quyida “Qush parvozi balandligidan” she’riy majmuaning 1- qismi keltirilgan:

13 인의아해가도로로질주하오.

(길은막달은골목이적당하오.)

제 1 의아해가무섭다고그리오.

제 2 의아해가무섭다고그리오.

제 3 의아해가무섭다고그리오.

제 4 의아해가무섭다고그리오.

제 5 의아해가무섭다고그리오.

제 6 의아해가무섭다고그리오.

제 7 의아해가무섭다고그리오.

제 8 의아해가무섭다고그리오.

제 9 의아해가무섭다고그리오.

²² 조선중앙일보

제 10 의아해가무섭다고그리오.

제 11 의아해가무섭다고그리오.

제 12 의아해가무섭다고그리오.

제 13 의아해가무섭다고그리오.

13 인의아해는무서운아해와무서워하는아해와그렇게뿐이모였소.

(다른사정은없는것이차라리나았소.)

그중에 1 인의아해가무서운아해라도좋소.

그중에 2 인의아해가무서운아해라도좋소.

그중에 2 인의아해가무서워하는아해라도좋소.

그중엔 1 인의아해가무서워하는아해라도좋소.

13 인의아해가도로질주하지아니하여도좋소 ²³.

13 bola yo'lda jon-jahdi bilan yugurib ketmoqda

(Yo'l esa boshi berk ko'cha)

1-bola qo'rqinchli deb aytdi

2-bola qo'rqinchli deb aytdi

3-bola qo'rqinchli deb aytdi

4-bola qo'rqinchli deb aytdi

5- bola qo'rqinchli deb aytdi

6- bola qo'rqinchli deb aytdi

7- bola qo'rqinchli deb aytdi

8- bola qo'rqinchli deb aytdi

9- bola qo'rqinchli deb aytdi

10- bola qo'rqinchli deb aytdi

11- bola qo'rqinchli deb aytdi

12- bola qo'rqinchli deb aytdi

13- bola qo'rqinchli deb aytdi

13 bola qo'rqinchli bola va qo'rqayotgan bola faqat shundaylar yig'ilgan

(Boshqa vaziyat bo'lganda qani edi)

²³ 박철희, 김시태. 현대시의 이해. 서울, 문학과비평사, 1992. -ㅅㅅ.123-124. She'r tarjimasi BMI muallifi tomonidan qilingan.

Ular orasida 1 tasi qo'rqinchli bola bo'sa ham yaxshi edi.

Ular orasida 2 tasi qo'rqinchli bola bo'lsa ham mayli edi.

Ular orasida 2 tasi qo'rqayotgan bola bo'lsa ham mayli edi.

Ular orasida 1 tagina bola qo'rqayotgan bola bo'lsa ham mayli edi.

13 bola yo'lda jon jahdi bilan yugurib ketmayotgan bo'lsa qani edi.

Yuqorida tarjimasi keltirilgan "Qush parvozi balandligida" she'rlar majmuasining birinchi qismida ikkita ruhiy holat o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi, biri qo'rquv va ikinchisi qo'rquvdan qutulishga bo'lgan harakat. Qo'rquvdan titrab turgan lirik qahramon undan chiqib ketish uchun jon-jahdi bilan yugurib ketayotgan bir holatda butun kuchini yig'ishga harakat qilayotgani manzarasi jonli tasvirlangan. Shuning uchun ham asl adabiyot shinavandalari o'sha qo'rquv aks etgan holatdan ko'ra undan chiqishga bo'lgan harakat holatini ongli ravishda his qilib asardan zavq oladi. Bu she'rning ob'yekti 13 bola emas, lirik qahramon psixikasidir. Ushbu psixologizmni ko'ra olish ko'pchilik uchun mavhum va murakkab bo'lgan she'rni tushunish va undan zavq olishga yo'l ochadi. Bu she'r qahramon ruhiyatini yaratish uchun shoir mantiqsizlik uzra mantiq yaratgandek ko'rinadi. Qisman qo'rqinch holatini k'orsatish orqali og'ir vaziyatga chiday olishdek hayotiy donishmandlikka undaydi. Jumladan Li San o'z she'ri orqali zamona zayli bilan unda xalqda vujudga kelgan barchaning ichida yashayotgan qo'rquvni tasvirlab bergan. Dardni yengishga harakat qilayotgan shoirning hatti-harakati bu she'rning mavzusini yanada chuqurlashtirib ko'rsatgan.

Bu she'rda bir necha ramziy so'zlar mavjud bo'lib bular **13 bola, boshi berk ko'cha, qo'rqinch va bolalarning qo'rqayotgan** holatidir.

13 bola yoki 13 raqami ramziy ma'nosiga Iso va uning 12 shogirdi degan izoh beruvchilar ham mavjud biroq, mantiqiy savol tug'iladi nafaqat diniy balki har qanday g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarga yo'l berilmayotgan, hattoki konfutsiylik ta'limoti va buddaviylik dinidan uzoqda voyaga yetayotgan avlodda boshqa bir din qarashlari ostida she'r ijod qilish yot holat

edi. Shu sabab ushbu she'rdagi 13 raqamini xristianlik bilan bog'lash biroz noto'g'ridir. Hattoki modernizm G'arbg'a xos oqim bo'lsa-da.

Qo'rqayotgan 13 bola ramzi ostida yorug' kunlarga bo'lgan e'tiqodi tobora parchalanib borayotgan xalq va uning tushkunligi, zulmat davri sabab birdek qiynoq va azoblar ostida qiynalayotgan katta-yu kichiklar nazarda tutilgan. Tarixdan ma'lumki, bunday ruhiy tushkunlikdan chiqqa olmagan ko'pchilik o'z joniga qasd qilishi ko'p uchragan. Bunday holat hattoki ziyolilar orasida ham sodir bo'lgan. Lirik shoir bo'lmish Kim So Volning o'z joniga qasd qilishi bunga yorqin misoldir.

O'z she'rida bola timsolini olib chiqishida ham katta ma'no bor. Haqiqat shuki o'yinchoq o'ynay olish huquqiga ega bo'lmagan bola - bolalik zavq shavqidan mahrum bechora boladir. Agar bola ham chorasizlikdan o'zini o'ldirishdan o'zga holat qolmaganini anglashi yuzaga kelsa, bu bola o'z yoshiga nisbatan erta katta bo'lib qolib davr mashaqqatini kattalar bilan birdek his qilayotganini anglatadi.

Boshi berk ko'cha - butun mamlakat notanish bir qo'l manfaati yo'lida o'yinchoq qilinayotgan xalq va mamlakatdir. Bolalar esa ana shu begona qo'l manfaati markazida ilojisizlik uzra jon-jahdi bilan bilan tinimsiz harakatda.

Agar umumiy olib qaraydigan bo'lsak, birinchi boladan tortib o'n uchinchi bolagacha qo'rqinchli deb aytayotgani, she'rning uchinchi bandida qo'rqinchli bola va qo'rqayotgan bola masalasi, to'rtinchi bandda kim qo'rqinchli bola-yu, kim esa qo'rqayotgan bolaligi madh etilayotgani muhim emas. Muhimi she'rda najot umid borligiga urg'u berilganidir. 13 bolaning ruhiy holati, yugurayotganing ma'nosi, yugurayotgan tarafi, necha kishi ekanligi, qo'rqinch va qo'rqayotganligi she'rdagi tugun emas, tugun she'rda olib chiqilgan qo'rquv holatidir. Bu she'r xalqning mustamlakaga olinishining ilk bosqichlaridagi hayot va vahima holatini kinoya tarzida madh etilgan she'rdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Li San she'rlariga har bir inson o'z nuqtai nazaridan yondoshadi. "Qush parvozi balandligida" she'rining

ikkinchi qismi o'ziga berilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondoshish birlamchi g'oya sifatida olib chiqilgan.

시(詩) 제 2 호

나의아버지가나의곁에서조을적에나는나의아버지가되고또나는나의아버지의아버지가 되고그런데또나의아버지는나의아버지대로나의아버지인데어찌자고나는자꾸나 의아버지의아버지의아버지의...아버지가되나나는왜나의아버지를경충뛰어넘어야하는 지나는왜드디어나와나의아버지와나의아버지의아버지와나의아버지의아버지 의아버지노릇을한꺼번에하면서살아야하는것이냐 ²⁴

2-she'r

Mening otam mening yonimda o'zini qo'lga olib mening otam bo'lib yana men mening otamning otasi bo'lyapman biroq shunday bo'lsa ham mening otam mening otamdek mening otam bo'lgan biroq ba'zida men tez-tez otamning otasining otasi... Ota bo'lib men nima uchun otam yuzidan sakrab o'tishim kerak otam vazifasini bajarib yashashim kerak

Yuqoridagi matn shaklidagi she'rda "ota" so'zi ramziy so'z bo'lib turlicha ma'no kasb etishi va turlicha o'qilishi ham mumkindir. Agarda she'rning bir biriga jipslashtirib yozilganini hisobga olsak she'r butunlay boshqa ma'no kasb etishi va she'r yanada sirli ko'rinishga ega bo'lishi ham bir faktdir. Masalan: ushbu so'z birikmasidan 아버지는나 – **yutqazayotgan men** kelib chiqadi va h. Vaqt ma'nosini kasb etuvchi nuqtai nazaridan olib qarasak "Ota" – o'tmish, tarix va mo'tabar zot kabi ma'nolarga urg'udir. She'r sub'yekti "ota" degan so'zga mute bo'lgan barcha so'z va holatlardir. Yana boshqa bir tarafdin xurofot va tizimlilikka qarshi impuls degan fikrlar ham yo'q emas.

Li San she'rlari odatda o'tmishdan uzilish, vahima, kelajakka ishonchsizlikni o'zida mujassam etgan bo'ladi. Aslida g'oyaviy-ijodiy xarakter jihatidan qahramonning chegaralanganligi, kelajakka bo'lgan

²⁴정상균 지음. 한국현대시문학사. 서울,아세아문화사, 2003. -605 쪽. She'r tarjimasi BMI muallifi tomonidan qilingan.

umidsizlik, tartib borasidagi mayl-xohishning ustunligi, tasavvur kuchining chegara bilmasligi faqat va faqat Li San ijodiga xosdir.

Albatta bu she'rdagi kalit so'z "ota" so'zidir. Sharqda ota oila atalmish mo'jaz makonni boshqaruvchi mas'uliyatli mo'tabar shaxs hisoblanadi. Shoir o'z she'ri orqali katta bo'ladimi kichik bo'ladimi vaziyatni o'z qo'liga olib mas'uliyatli bo'lishga undamoqda. She'rdagi bu jumlar aynan shu undovga ishoradir:

...yana men mening otamning otasi bo'lyapman biroq shunday bo'lsa ham mening otam mening otamdek mening otam bo'lgan biroq ba'zida men tez-tez otamning otasining otasi...

U boshqalarga qaraganda birinchilardan bo'lib inson hayoti haqida chuqur savollarni o'rta tashlab, hodisa va asosiy xossalarni o'zaro qarshi qo'ygan, qism va butun holat o'rtasidagi nomutanosiblik muammosini olib chiqqan tafakkur egasidir.

"Qush parvozi balandligida" she'riy majmuasining yana bir muhim ma'no kasb etuvchi qismi bu uchinchi she'rdir:

시(詩) 제 3 호

싸움하는사람은즉싸움하지아니하든사람이고또싸움하는사람은싸움하지아니하는사람
이엇기도하니까 싸움하는사람이싸움하는구경을하고싶거든
싸움하지아니하든사람이싸움하는것을구경하든지싸움하지아니하는사람이싸움하는구
경을하든지싸움하지아니하든사람이나싸움하지아니하는사람이싸움하지아니하는것을
구경하든지 하엿으면그만이다 ²⁵.

3-she'r

Urushayotgan odam ya'ni urushayotgan yoki urushmayotgan odamdir shuningdek urushayotgan odam urushmayotgan odam bo'lishi ham mumkin agarki urushayotgan odam urushni tomosha qilishni xohlagan bo'lsa urushish yoki urushmayotganligidan qat'iy nazar urushishni tomosha qilayotgani aynan urushmayotgan odam urushni tomosha qilayotgani urushdan qat'iy

²⁵정상균 지음. 한국현대시문학사. 서울, 아세아문화사, 2003. -607 쪽. She'r tarjimasi BMI muallifi tomonidan qilingan.

nazar urushmayotgan odam urushmaslikni tomosha qilgan bo'lsa shuni o'zi yetarlidir.

Yuqorida berilgan 3-she'rdagi obyekt urushdir, subyekt esa urushayotgan odamdur. Ilgari surilgan va ijodkor nuqtai nazaridan urg'u berilmoqchi berilgan holat esa bo'layotgan voqeaga tomoshabin bo'lib turishdir.

Yapon anneksiyasi davrida bo'layotgan dahshatli voqealarga nisbatan jimgina tomoshabin bo'lib turish qoralangan. Shoir o'z she'ri orqali urushish yoki urushmaslikdan qat'iy nazar tomoshabin bo'lish ham yuzaga kelgan vaziyatga birdek zarar keltiradi, degan g'oyani so'z o'yini orqali o'z ijodida yashirin jumboq tarzida yashirgan.

Majmuadan joy olgan boshqa she'rlar to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 4-she'r mustamlakadan avvalgi Choson qirolligining yo'q bo'lib borayotgani, mamlakat parokandalikka yuz tutayotgani sonlarning qoq ikkiga bo'linishi orqali ko'rsatilgan, 5-qismda xaos, betartiblik borasida fikr yuritgan. Va she'r so'nggini 장부(臟腑)라는것은침수된축사(畜舍)와구별될수있을란가 – *Insonning ichi suvga g'arq bo'lgan molxonadan farqli bo'lishi kerak*, degan kinoya bilan tugatgan.

She'rning boshqa qismlarida turli xil obrazlardan foydalangan. O'rta asr she'riyati, sidjo janri, jumladan zamondosh shoir va yozuvchilar ijodida turli xil nabotot va hayvonot olamidan ramz sifatida foydalanish an'anaga aylangan bo'lsada Li San o'z she'riyatida nabotot va hayvonot olamiga ramz nuqtai nazaridan kam murojaat qilgan faqatgina "Qush parvozi balandligida" she'rining 10-qismida "kapalak" ramzini olib chiqqan. Bundan boshqa bu kabi ramzlardan foydalanmagan. Li San she'riyatining asosiy subyekt va obyektlari inson, insoniy tuy'g'ular va insonning ruhiy holatlari hisoblanadi. She'riy to'plamning so'nggi 15-qismida yana "ko'zgu" ramziga qayta murojaat qilgan. Bu she'r yuqorida tahlilga tortilgan "Ko'zgu" she'rining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Li Sanning nasriy va nazmiy ijod namunalarining o'ziga xos xususiyati she'rning g'oyalari sochma

holdaligi, shoirning ongi va qalbida charx urayotgan g'oya, hislarning obrazli ifodasi uchun inson omilining boshdan kechirayotgan qiyinchiliklari asos bolayotgani, ma'no jihatidan ahamiyat kasb etmaydigan, biroq shaklan tartibning mavjudligi va an'anaviy koreys adabiyotidagi ramziy obrazlar va tashxisdan foydalanish emas, bilaks raqamlar bilan ko'p ishlashdir. "Qush parvozi balandligi" she'rlar majmuasi mustamlaka davridagi tushkunlikni niqob ostiga yashirib ko'rsatib bergan. Qismga bo'lingan she'rlar yagona - "o'zlikni anglash" g'oyasi ostida birlashadi. Aql bilan ish ko'rish, ilmiy-amaliy tajribaga suyanish va o'zlikni anglashga undash orqaligina shoir o'z xalqiga yorqin kelajak tomon olg'a borish mumkinligini uqtirishga harakat qilgan.

2.3 Li San she'riyatining uslubiy xususiyatlari

Uslub shoir va yozuvchining dunyoqarash, ijodiy metod, g'oyaviy niyat, fantaziya, hayot materiallarini qalb prizmasidan o'tkazish, adabiy janr va uning imkoniyatlaridan foydalana olish, so'z tanlash san'ati, ifoda usulida namoyon bo'luvchi o'zligidir²⁶. Ana shu o'zlikni namoyon qilish uchun XX asrga kelib shoirlar she'r shakli ustida ko'plab izlanishlar olib borishdi, deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida bunday izlanishlarga o'sha davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy sahnasida sodir bo'lgan o'ziga xos o'zgarishlarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Albatta bu o'zgarishlar badiiy san'atga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Sana'dagi ifoda usuli tubdan o'zgarib, ilk yo'nalishlardayoq (kubizm, fovizm) shaklning qiymati va ahamiyati ortib bordi. Shu davrda ijod qilgan modern shoirlar mavjud shakliy ifodani rivojlantira boshladilar. Shu sabab ham modern she'riyatining qudrati uning rang-barangligidadir.

Uslub ijodkorning o'z davrida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarga faol munosabatining mahsuli va ijodkorning originalligini ko'rsatuvchi bosh omil bo'lgani sababli Li San she'riyatining uslubiy xususiyatlariga to'xtalib o'tish, uning modernizmi estetikasini yoritib beruvchi asosiy faktorlardan biridir.

Bir shoir ijodida butun bir yo'nalish aks eta oladi, deb aytib bo'lmaydi. Shuningdek, bir shoir ijodida bittagina yo'nalish aks etadi, deb ham aytib bo'lmaydi. Li San ijodida hayolot murakkabligi mavjud, aynan ana shu mavjudlik barcha modernistik oqimlarga xos bo'lgani uchun ham Li San uslubiiyatini aniqlashda insonni biroz chalkashtiradi.

Uning murakkablik va mavhumlikka to'la she'riyati voqelikka yaxshiroq razm solishga, ramziy ma'no qatlamlarini yanayam chuqurroq anglashga chorlaydi.

²⁶ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., Ўзбекистон, 2002. -242 б.

Ko'pgina Koreya adabiyoti manbaalarida Li Sanning she'riy uslubiylati dadaizmga yana boshqa bir adabiyotlarda syurrealizmga xos deb ta'kidlanadi. Aslida ham shundaymi? Bunga aniqlik kiritish uchun esa dadaizm yo'nalishining asoschisi bo'lgan Tristan Tzaraning ijodiga murojaat etsak:

a e ou o youyouyou i e ou o

youyouyou

drdrdrdrdrdrdrdrdr²⁷

Yuqoridagi she'rdan ko'rinib turibdiki, Tzaraning she'rida ham mavhumlik, bir so'z(**you**)ning takrori qayd etilgan. Bu she'rni ham bir o'qishda tushunish, anglash qiyin. Bundan tashqari T.Tzara o'zining boshqa bir manifestida **hurle** (uvillash, nola-fig'on) so'zini 158 marta qayta qo'llagan. Shuningdek, raqamlar bilan ham ishlab, yana boshqa bir she'rida ikki uchga tengdir ya'ni $2=3$ degan mantiqsiz g'oyani ilgari suradi.

Dadaizmga umumiy tavsif beradigan bo'lsak, u shunday norealistik oqimki, unda ijodkor hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zlardan voz kechib mantiqsizdek ko'ringan tushunarsiz so'z va iboralarni ko'p qo'llaydi, jumladan dadaistik manifestlar turli xil rasm, chizgi, raqamlar ustuni, turli xil shrift va yozuvga oid o'ziga xosliklar bilan to'la²⁸.

Yuqorida keltirilgan misol va ta'rifdan so'ng Li San uslubiga nazar soladigan bo'lsak, tadqiqotning asosiy amaliy manbaasi hisoblangan "Qush parvozi balandligidan" she'riy to'plamida uchraydigan so'z takrori (시(詩) 제 3 호 "싸움" 3-she'r "**urushayotgan**"; 시(詩) 제 2 호 "아버지" 2-she'r-"**ota**") raqamlar ustuni ("Qush parvozi balandligidan" 4-she'r), mantiqsizlik ichra mantiq, yapon yozuviga xos bo'lgan probelsiz yozish (거울-"**Ko'zgu**") dan kelib chiqib to'laqonli ravishda dadaizm yo'nalishida ijod etgan deya olamiz.

Ijodkorning syurrealistik ruhda yozgan deyilishiga sabab, "Qush parvozi balandligidan" she'riy majmuasining 1-she'rida syurrealistik oqimga xos xarakterning mavjudligidir. Ya'ni, 13 bola va ulardagi qo'rquvni yoritib

²⁷ www.yandex.ru/ Лекции по зарубежной литературе XX века

²⁸ O'sha joyda.

berish orqali syurrealizmga xos bo'lgan inson ruhiyatining sirliligi, bu oqimda voqe'likdan ham ustun turuvchi instinkt olami (qo'rquv va undan chiqishga umidvorlik, undov), og'riqli tushlar, hayotiy betartib taassurotlar orqali aql-idrok va tajriba yo'lini inkor qilishdir. Zeroki, syurrealizm Andre Breton aytganidek: "Voqelikni og'zaki, yozma va boshqa usullar orqali sof psixologik avtomatizm orqali bayon etishni maqsad qilgan real harakatlanayotgan fikrlardir. Syurrealizm estetik va axloqiy qarashlarga bo'ysunmagan va ong tomonidan boshqarilolmay qolingan fikrlarni irod etishdir"²⁹.

Li San she'riy ijodiyotining uslubiy xarakterini aniqlashda unga mashhurlik keltirgan "Ko'zgu" va "Qush parvozi balandligidan" she'riy majmuasi o'ta ahamiyatlidir. Zero, shoir ana shu ikki she'rda yon atrofdagi voqelikka nisbatan ongida kechayotgan tafakkur jarayonini avtomatizm orqali boricha namoyon etgan. Quyida uning uslubiyatiga aniq chizgi bera oladigan "Ko'zgu" va "Qush parvozi balandligidan, 1-she'r"ining xarakteristikasi asnosida tuzilgan jadvalni keltiramiz:

"Ko'zgu" she'rining xarakteristikasi

1-jadval

Muallif: Li San	1.	2.	3.
She'ning xarakteri	<i>Psixologik</i>	<i>dadaistik</i>	<i>syurrealistik</i>
She'ning g'oyaviy yo'nalishi	<i>Syurrealistik oqimda</i>		
She'r ohangi	<i>Kinoyali</i>	<i>pessimistik ruhda</i>	
She'ning tasviriy uslubi	<i>ko'zgu ichidagi avtoportret</i>		
Ifoda etish usuli	<i>Avtomatizm va syurrealizm orqali o'zlikni anglash masalasi ochib berilgan</i>	<i>psixologizm</i>	<i>borliqni inkor etish</i>
She'r mavzusi	<i>o'zlikni anglash</i>		

²⁹ www.yandex.ru/ Лекции по зарубежной литературе XX века

“Qush parvozi balandligidan” she’rining xarakteristikasi

2-jadval

Muallif: Li San	1.	2.	3.
She’rning xarakteri	<i>Psixologik</i>	<i>ramziy</i>	<i>abstrakt(mavhun)</i>
She’rning g’oyaviy yo’nalishi	<i>dadaistik oqimda</i>		
She’rning kalit so’zlari	<i>13 bola</i>	<i>boshi berk ko’cha</i>	<i>qo’rqinch va bolalarning qo’rqayotgan</i>
She’rning tasviriy uslubi	<i>O’sha davrdagi mavjud hayotning psixologik manzarasi</i>		
She’r mavzusi	<i>Mustamlaka ostida yashayotgan bolalarning qo’rquv, umidsizlik va tushkunligi</i>	<i>Mantiqsizlik ichra mantiq</i>	<i>Odam bolasining eng so’nggi lahzagacha umidvorligi</i>

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, ijodkor har bir she’rida bir necha modernistik oqimlardan foydalanish orqali o’z his-tuyg’ularini huddi musavvirday tasvirlab ifoda etgan. Li San she’rlarining tashqi qurilishi ham, grafik shakli ham, uni she’riyatiga modernizm va uslubiyat nuqtai nazaridan baho berishda ahamiyatli vositadir. To’g’ri, she’rda his-tuyg’uga mos ritm, so’zlar, musiqiy ohang nasrga qaraganda kuchliroq estetik taassurot qoldiradi, biroq modern she’riyat bundan mustasno. She’rning ta’sir kuchi ohangdorlikning o’zi bilangina ta’minlanmaydi. Uni o’z o’rni, qadriyatiga ega bo’lishida uslubiyat ham birlamchidir. Turli xil uslublardan foydalanib yozilgan modernistik asarlarni tasavvurga erk berib o’qigandagina tushunish mumkin. Zeroki, ijodkor qanday uslubni qo’llashidan qat’iy nazar o’z asarini tasavvurlariga erk bergan holda dunyoga keltiradi. Bo’lim boshida ta’kidlaganimizdek, bir shoir ijodida butun bir yo’nalish aks eta oladi deb aytib bo’lmaganidek, bir shoir ijodida bittagina yo’nalish aks etadi deb aytish ham nojoiz. Li San ijodi ham shunday, u o’z asarlarida butun bir yo’nalishni

aks ettirmaydi, balki, bir vaqtni o'zida bir necha yo'nalishlardan foydalanadi. Aynan shunday o'ziga xos uslub orqali uning asarlari ko'zdan pinhon tutilgan mazmunga ega. Uning tafakkur tarzi o'zgalarga o'xshamagan tarzda kechgani uchun ham Li San asarlaridan estetik zavq va taassurot olish aksariyat hollarda murakkab tarzda kechadi.

XULOSA

Koreys davlatining o'zbek xalqi bilan madaniy aloqalarini mustahkamlashda eng muhim bog'lovchi vositalardan biri shubhasiz adabiyotdir. Zeroki, badiiy adabiyot - inson ma'rifati va ma'naviyatining qog'ozdagi aksidir. Inchunun, Koreya modern adabiyotining mashhur vakillaridan biri bo'lmish Li San modernizmi estetikasining mohiyatini anglash orqali quyidagi xulosalarga keldik:

1. Koreys modern adabiyotida Li San ijodining o'rni shundaki, asarlarining g'oyaviy markazida shaxsning ichki kechinmalari, onglilik va ongsizlik holati, uning ichki dunyosi, o'zlikni anglash masalasi muhim o'rin tutadi.

2. Li San modernizmining estetikasi esa - uning bir vaqtini o'zida bir necha norealistik oqimlardan foydalanish orqali ijod namunasining tubida o'z hayotining falsafiy mantig'ini bayon etishidir. Li San she'riy asarlaridagi estetik zavqni anglash uchun she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, uning zamona sababli shovqinli, yolg'on, haqiqiy bo'lmagan tasavvurga tushib qolganini, oqibatda o'zini qidira boshlagani va bu olamda o'zining "men"nini topish mushkul ish ekanligini anglagani, biroq mushkul bo'lsa-da o'zlikni anglash tutqunlikdan chiqish uchun olib boruvchi yagona yo'l ekanligini xalq ongiga singdirishga harakat qilganini ko'ramiz. Shoirning ahvol-ruhiyati, kayfiyati, kechinma va his-tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda, butun ichki hayoti, shu hayotning oqimlari, uning barcha she'rlarida namoyon bo'ladi. Chunki qahramon nutqi bevosita ruhiy holat mahsuli sifatida paydo bo'ladi.

3. Li Sanning ijodiy me'rosi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ijod na'munalari biroz murakkab shaklga ega ekanligini, she'larida boshqalarnikiga o'xshamaydigan uslub, shuningdek satrga olmagan holda ketma-ketlikda yozish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Aytish joizki, bu boshqa shoir ijodkorlarda uchramaydigan holatdir. Uning ijodida ko'proq mavhumlik hukm suradi. She'rlarni bir o'qishda tushinib olish qiyin. Ularni maxsus izoh orqali tushunilib o'qilmasa, she'r g'oyasini anglash imkonsizdir.

4. Li San o'z asarlaridagi kutilmagan burilish va yechimlar, takrorlanmas noodatiy uslub, tizimlilik va qolipning mavjud emasligi orqali adabiyot shinavandalarini dunyoni ijodkor nuqtai-nazari, ruhiyatidan kelib chiqib tushunishiga undaydi.

5. Li San estetikasi uning xoh nasriy, xoh nazmiy ijod namunasi bo'lsin o'ziga xos xususiyatga ega ekanligida. She'rning g'oyalari sochma holdaligi, shoirning ongi va qalbida charx urayotgan g'oya, hislarning obrazli ifodasi uchun inson omilining boshdan kechirayotgan qiyinchiliklari asos bolayotgani insonni o'tmish borasida chuqur o'yga toldirib qo'ya oladi.

6. Koreya modern adabiyotida o'ziga xos mavqe'ga ega bo'lgan Li San va uning asarlari estetikasining ahamiyati shundaki, asardagi tasvir shoir tasavvuridagi olam asosida chizilganligidir. Shu silsila asosida estetik zavq yaxlitlik kasb etib, tasvir esa tobora abstraklashib boradi. Agar o'quvchi she'rdagi ana shu tasviri oqimga tusha bilsa, shoirning mantiqqa asoslanmagan ayqash-uyqash olamini ko'ra boshlaydi.

7. Li San nazmiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari, poetik tafakkurining va badiiy mahoratining betakror va murakkabligi bilan nafaqat o'z davrining ijodkorlari, balki Koreya adabiyotining o'tmish va bugunida ham muhim o'rin egallovchi ma'lum va mashhur shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T.: Ma'naviyat, 2009.

II. Darslik, o'quv qo'llanma va boshqa asarlar:

3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон, 2002.
4. Бобоев Т. Шеър илми таълими. Т.: Ўқитувчи, 1996.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т.: Ўқитувчи, 1986.
6. Мирқосимова М. Сўз изтироблари. Т.: Миллий кутубхона нашриёти, 2010.
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? Т.: Шарқ, 2001.
8. Ким В.Н., Сайдазимова У.Т., Пак И.Л., Эм А. П., Литература страны изучаемого языка (Корея)-2 Учебное пособие Т., «contour digital», 2011.

III. Xorijiy adabiyotlar:

9. 권영민 현대 문학사. (“Zamonaviy adabiyot ensiklopediyasi”) 서울. (1896-1945).
10. 권영민 편. 한국현대문학대사전. 서울대학교출판부. 서울:2004.
11. 김운식, 김현. 한국문학사. “민음사”. 서울:1973.
12. 김준현. 마음 떠난 자리에. Корея-Сеул, 1997.
13. 김만수, 서경석, 정호웅, 한형구. 고교 생을 위한 문학사. 도서출판 강, 1998.
14. 김준현. 마음 떠난 자리에. Seul. 1993.
15. 박철희, 김시태. 현대시의 이해. 서울. 1992 년. 문학과비평사
16. 박철희, 김시태. 현대시의 이해. 문학과비평사. 서울. 1992 년 (Pak Jol Xi, Kim Shi Te. “Zamonaviy she'riyatni anglash”)
17. 송희복. 문학의 길 잡이. “박이정”. 서울: 2003
18. 정상균 지음. 한국현대시문학사. “아세아문화사”. 서울: 2003.

19. Kim Hung Guy, translated by J. Fouser. Understanding Korean Literature, USA, 1997
20. Kim Yoon-shik. Understanding Modern Korean Literature. Seoul. 1998.
21. Kim Yoon-shik Edited & Translated by Jang Gyung-ryul. Understanding Modern Korean Literature, «Jimoondang». Seul. 1998.
22. Cho Nam Hyun, Oh See Young, Understanding Modern Korean Literature, Seul. 1991
23. Choe Tong-ho, Kim Ju-yon, Kim Yoon-shik, Chyong Hyon-ki. Modern Korean Literature (1945-1990). The Korean Culture and Arts Foundation. Soul: 1992
24. Корейско-русский словарь, 김 문 옥. Seul. 2009.
25. Тэн А.Н. Очерки корейской литературы XX век (до 1945 г). 2003.
26. Чо Юндже. История современной корейской литературы. С.: 1962

IV. Ilmiy monografiya, maqolalar:

27. Абдугафурова З. **Корейс шеърлий жанрлари тарихи ҳамда унинг таракқиёт босқичлари** 27-34 бетлар. КАМОЛОТ САРИ 3-СОН, Иктидорли ёшлар илмий тўплами. ТошДШИ, 2011.
28. Абдугафурова З. **Ли Сан “Кўзгу” шеърининг бадиий таҳлили** 100-103 бетлар. КАМОЛОТ САРИ 4-СОН, Иктидорли ёшлар илмий тўплами. ТошДШИ, 2011.
29. Sharq yulduzi. 1/2010. Q.Yo'ldoshev. Mohiyatni anglatish yo'li.
30. Sharq yulduzi. 3/2010. S.Quronov. She'riyatda geometrik izlanishlar.

V. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari:

31. 정진경, “이상 시에 나타난 집단적 불안의식 연구”, 부경대학교 대학원. 2007. (Chong Jin Gyong, “Li San she'rlarida uchraydigan havotir va vahima ”. Magistrlik dissertatsiyasi, Bugyong universiteti, 2007).
32. 정신재, “이상 시의 작가 심리학”, 한국어문학연구학회, 1993. (“Chon Shinje, Li San she'rlarida muallif psixologiyasi”. Nomzodlik dissertatsiyasi, Koreys tili va adabiyoti ilmiy institute, 1993).

VI. Internet saytlari:

31. <http://altaica.narod.ru/t-korean.htm>
32. <http://www.naver.com/>모더니즘/시의 경우
33. <http://blog.daum.net/poeming/>
34. www.quronov.uz/modernizm
35. www.quronov.narod.ru/modernizm
36. www.yandex.ru/Лекции по зарубежной литературе XX века